

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti




## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

JADID ZIYOLILARINING IJTIMOIIY FAOLIYATI VA IJODIY MEROSIDA  
MA'RIFAT G'OYALARINING AKS ETISHI*Madaliyev Yarmuxammad**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** jadid, millat, ozodlik, til, adabiyot, madaniyat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadid allomalarining milliy ta'lim, matbuot sohasidagi islohoti yoritib boriladi. Ma'rifatparvar shaxslarning ma'naviy-axloqiy qarashlari xususida mulohaza bildiriladi.

THE REFLECTION OF ENLIGHTENMENT IDEAS IN THE SOCIAL ACTIVITIES  
AND CREATIVE HERITAGE OF JADID INTELLECTUALS*Madaliyev Yarmukhammad**Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**South Kazakhstan University named after M. Avezov*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** Jadid, nation, freedom, language, literature, culture.

**Abstract:** This article describes the reform of modern scholars in the field of national education and press. A comment is made on the spiritual and moral views of enlightened persons.

ОТРАЖЕНИЕ ИДЕЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА В СОЦИАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
И ТВОРЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ ДЖАДИДОВ*Мадалиева Ярмухаммата**Доктор философии (PhD) по филологическим наукам**Южно-Казахстанский университет имени М.Авезова*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** джадид, нация, свобода, язык, литература, культура.

**Аннотация:** В данной статье описывается реформа современных ученых в области отечественного образования и печати. Дан комментарий о духовно-нравственных воззрениях просветленных людей.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bu yil **Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida**: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur", deyiladi.

Yuqoridagi fikrlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan: Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yuzlab ulug' insonlarning ulug' xizmatlari va ezgu intilishlarini nazarda tutib aytiladi. Yurtboshimiz 2020-yili O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqloq, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar", deya ta'kidlagandi.

Darhaqiqat, taraqqiyparvar jadid ziyolilari XIX asr oxiri XX asr boshida Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinib xom ashyo bazasiga aylantirilgan, iqtisodiy-madaniy inqiroz yoqasiga kelib qolgan Turkistonning yangilikka tashna islohotchilari, sho'ro davlatining qurbonlari edi. Ular XVI asrdan e'tiboran Buyuk ipak yo'li zaiflashib qolgani, so'ngra xonliklarga bo'linib ketgan o'lkaning Kavkaz, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarbayjon, Rossiya va Eron singari atrofimdagi mamlakatlarga nisbatan taraqqiyotdan ortda qolgani, Yevropa texnologiyasi jadal rivojlanayotgani, Turkistondagi ichki nizolar, eskicha idora usullari xalq xo'jaligi va umumiy rivojlanishga ulkan zarar yetkazayotganini o'z vaqtida anglab yetgan va barcha sohada jahoniy taraqqiyot sari jasorat bilan dadil intilgan fidoyi intellektual yoshlar, vatanparvar ziyolilar edi.

Jadidlar aql-zakatda favqulodda yuksak maqomga yuksalishdi. Ular Sharq va G'arb madaniyatidan katta bilimga ega edilar. Chunki taraqqiyparvar ziyolilarning deyarli barchasi:

Birinchidan, oliy diniy va dunyoviy ta'lim olishgan. Masalan, Behbudiy muftiy, Munavvarqori imom, Ibrat qozi bo'lgan edi. Ehtimol, shuning uchun ham, jadidlarning bilimga intilish bilan bog'liq islohotlari negizida Qur'oni karim va hadisi sharif turgan. Ayni paytda, jadidlar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Navoiy, Jomiy, Bobur, Fuzuliy, Munis, Ogahiy she'riyati, o'rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni ham o'qib va uqib olgan edilar.

Ikkinchidan, jadidlar o'z bilimlarini jahon madaniyati ilg'or yutuqlari bilan boyitishga intildi. Jumladan, Abdulhamid Cho'lpon "Ulug' hindiy" nomli maqolasida Rabindranat Tagor ijodida hind ruhi va G'arb uslubi uyg'unlashganini qadrladi. Fitrat "Munozara" asarida o'lkadagi ahvolga xorijlik olim nazari bilan qarab, optimal yechimlar qidirdi. Behbudiyning "Bir til emas, to'rt til kerak" nomli maqolasida jadidlarning til haqidagi konsepsiyasi o'z ifodasini topdi. Bularning barchasi, jadidlar dunyo madaniyatini bag'rikenglik bilan qayta o'zlashtirish tarafdori bo'lganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ziyolilarimiz bog'chasaroqlik Ismoil Gaspiralining "Vaqt" va "Tarjumon" gazetalaridan turkiy birdamlik, maktab, ma'orif sohasidagi yangiliklar, dunyoda kechayotgan

jarayonlar haqidagi axborotlarni o'qib o'rganishdi. Mahmudxo'ja Behbudiy I.Gaspirali bilan uchrashdi, Ismoilbek Buxoroga kelib, nainki jadidlar, balki amir bilan ham yangi maktab va ma'orifning ahamiyati xususida suhbatlashdi. Bunday aloqalar o'lkamizda milliy matbuot va yangi maktablarning vujudga kelishiga samarali ta'sir etdi. Ta'kidlash o'rinliki, Said Azimboyev, Mirkomilboy kabi o'ziga to'q kishilar "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "El bayrog'i", "Kengash", "Turon", "Hurriyat", "Najot", "Buyuk Turkiston", "Tujjor", Oyna" singari gazeta va jurnallarga homiylik qilishdi.

To'rtinchidan, mamlakatni boshi berk ko'chadan chiqarishni ma'rifat va turkiy xalqlar birligida ko'rgan Feruz, Amiriy, Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Hamza, Zavqiy, Bayoniy, Avaz, Abay, Cho'qon Valixonov singari salafllari izidan borishdi. Masalan: Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) G'arbning texnologik yutuqlarini jalb etishning ahamiyatini chuqur anglab yetdi. U Rossiyadan bosmaxona sotib olib kelib, Xivada ishga tushirish, ilk jadid maktabi, hatto qiz bolalar uchun yangi usuldagi maktab ochilishi, shifoxona, pochta, fotografiyani rivojlantirish kabi xayrli ishlarga bosh qo'shdi. Tarjimachilik maktabini shakllantirdi. Vaziri a'zam Islomxo'ja bunday ezgu ishlarga homiylik qildi. Rossiya, Eron, Xitoy va Hindistondagi inqilobiy harakatlar ham o'lkamiz taraqqiyparvar ziyolilari intilishlari uchun muayyan turtki berdi.

Beshinchidan, jadid bobolarimiz ma'rifatparvar salafllari tayyorlagan milliy zamindan o'sib chiqdi. Ularning shonli yo'lini sharaf bilan davom qildirdi. Ammo ular maktab, maorif, kutubxona, qiroatxona, matbuot, teatr, adabiyot va san'atdan siyosatga o'tib, ommaviy ta'sir etish, bilimsizlik va jaholatga qarshi kurashishda xalq ongida fikriy-hissiy inqilob yasashdi. Binobarin, ular o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgari ketgan yangi avlod edi. Bunday hol Qozog'istondagi **"Alash O'rda" harakati (keyinchalik "Alash O'rda" hukumati) faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ldi**<sup>1</sup>. **Shubhasiz, bu jarayon Cho'qon Valixonov, Oltinsarin, Abay Qo'nonboyev singari ma'rifatparvar ziyolilar ijodi va faoliyati ta'sirida vujudga keldi. Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan Mustaf Cho'qay (Cho'qayev) "Birlik tug'i" gazetasi muharririgidan Munavvarqori Abdurashidxonov yetakchilik qilgan "Sho'roi islom" harakati faollaridan biri va Turkiston muxtoriyati hukumati Bosh vaziri, tashqi ishlar vaziri darajalarigacha ko'tarildi.**<sup>2</sup> O'sha davrda Ozarbayjon, Boshqirdiston, Malayziya, Hindiston va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlari kuchaygani bu mamlakatlar ziyolilari o'rtasida mustahkam rishtalar bo'lganini ko'rsatadi.

Oltinchidan, kadrlar masalasiga katta ahamiyat qaratgan jadidlar "xayriya jamiyati" ko'magida ko'plab Turkiston yoshlarini Turkiya, Germaniya, Saratov, Qozon kabi shaharlardagi nufuzli ilm dargohlariga o'qishga jo'natishgan. Qozoq jadidlari hududiy jihatdan yaqin bo'lgani uchun yoshlarni ko'proq Rossiyaning Moskva va Sankt-Peterburg universitetlariga o'qishga jo'natishgan.

Afsuski, jadidlarning ezgu amallari juda oz vaqt oralig'i va muayyan siyosiy voqealar bilan cheklanadi. Jumladan, Turkiston jadidlari davlat boshqaruvidagi huquqiy tajribasizligi tufayli Turkiston Muxtoriyati hamda Alash O'rda hukumati kabi davlatlarini asrab qolisha olmadi. Buxoro

<sup>1</sup>Nurpeyisov K. Alash ham Alashorda. Almaty, 1995.

<sup>2</sup>Cho'qayev M. Turkistondagi milliy kurash. – Parij, 1923; Cho'qayev M. Turkistondagi bosmachilik harakati. – London, 1928; Cho'qayev M. O'rta Osiyodagi Sovetlar. – Parij, 1928; Cho'qayev M. 1917-yil xoltira parchalari. – Berlin, 1937 (Bu kitob o'zbek tilida bo'lib, keyinchalik 1988-yilda Anqarada, 1989-yilda Germaniyada, 1992-yilda Toshkentda, 2001-yilda Tokio-Moskvada turli tillarda chop etilgan); Cho'qayev M. Tanlangan asarlar. – Olmaota, 1998-1999 (qozoq va qisman rus tilida); Cho'qayev M. Turkestan pod vlastyu Sovetov. – Parij, 1935; Istiqlol jallodlari (1917-y. xotiralari), – Toshkent, 1992; Sharafiddinov O. Mustaf Cho'qay, Cho'lpon, Otajon Hoshim. – Toshkent, 1993; Iz istorii Rossiyskoy emigratsii: pisma A.3. Validova i M. Chokayeva (1924-1932 gg.), – M., 1989; O'zbekistonning yangi tarixi, 2-kitob [O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], – Toshkent, 2000; Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi, – Toshkent, 2002.

va Xiva jadidlari bolsheviklarga qattiq ishondi va alamli tarzda aldandi<sup>3</sup>. Shunga qaramasdan, yuqorida ta'kidlanganiday bu harakat namoyandalari zamondoshlari ong-shuurida inqilobiy o'zgarishlar yasashdi. Jamiyatni yangilashning keng qamrovli konsepsiyasini yaratishdi va imkon qadar joriy qilishdi. Yangi va ilg'or jadid adabiyoti: nasrda (hikoyachilik, qissachilik, romanchilik); lirikada (kurashchan ijtimoiy she'riyat); dramaturgiyada (drama, komediya, tragediya); san'atda teatr va kinoga asos solishdi. Maorif sohasida ta'limning yangi shakllarini yaratishdi, amaliyotga joriy qilishdi. Maktablarni darslik va qo'llanmalar, o'quv qurollari bilan ta'minlashdi. Ilg'or texnologiyalar (grammafon, fotosurat, harakatli kino, tipografiya)ni o'lkamiz hayotiga joriy qilishdi. Ayollarga bo'lgan munosabatni yangilab, ko'pchilikni oilada farzandlarni madaniy kamol toptirishda ayol-qizlar iqtidor va salohiyatidan foydalanish zarurligiga ishontirishdi. Barcha ishlarni amalga oshirishda matbuotdan faol targ'ibot-tashviqot minbari hamda teatrdan vositali ta'sir quroli sifatida barakali foydalanishdi.

Anglamladiki, o'z davrining eng tashabbuskor islohotchi va fidoyi insonlarini birlashtirgan jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Turkiston xalqlari manfaatlarini ifodaladi. Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalari tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi. Demak, muhtaram Prezidentimizning Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlar ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashi bejiz emasdi...

Ma'lumki, millat – madaniyati, tili, geografik hududi, iqtisodiy-madaniy hayoti va ruhiy xususiyatlarining umumiyliigi asosida tarixan o'zligini anglagan eldan vujudga keladi. Uning faxr-iftixor hissini tuyish va g'ururlanishga arziydigan shonli tarixi, dunyo tamadduniga qo'shgan salmoqli ilmiy, madaniy-ma'rifiy ulushi, ardoqlash va ibratlanishga loyiq ulug' siymolari bo'ladi. Ular bilan haqli tarzda g'ururlanish va iftixor tuyish hissi millatning ko'ksini yuksaltiradi, tenglar ichra teng bo'lib, qaddini tik tutib yurishi, ulug' maqsadlar yo'lida dadil olg'a intilishida madadkor kuch vazifasini o'taydi. Jadidlar o'lkamizda yashovchi barcha millatlarning ota-bobolari, onalariyu momolari edi. Shu bois, bu millatlarning dovyurak qahramonlari, fidoyilarining barcha ezgu harakat-intilishlari biz uchun hamisha mardonavorlik, botirlik va jasorat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>3</sup>Musbyuro (RKPb) v Turkestane. 1, 2 i 3 Turkestanskiye kraevnye konferensii RKP 1919-1920 gg. s vvedeniye m tov. Riskulova, – T., 1922; Risqulov T. Yettisuv maslalar. – T.: 1923; Risqulov T. Inqilob va Turkistonning tub aholisi. (1917-1919) 1-qism. – T.: 1925; Risqulov T. O'rta Osiyo aholisining 1916-yil qo'zg'oloni. – Qizil Orda, 1927; Riskulov T. Kazakstan. – M-L.: 1929; Anishev A. Ocherki grajdanskoy voyny 1917-1920 gg. / An. Anishev voyenno-polit. Akad. im. T. Tolmacheva RKA iRKKF. – L.: Gos. izd-vo, 1925. – 288 s.; Alekseenkov P. Kokandskaya avtonomiya. Uzgiz, – Tashkent, 1931; Shama'diyev Sh. Ocherki istorii grajdanskoy voyny v Ferganskoy doline. Izd-vo Akademii nauk Uzbekskoy SSR, 1961 –386 s; Mustafo Cho'qay. "1917-yil xotira parchalari". "Yosh Turkiston" nashriyoti. – Anqara, 1988; Mustafo Cho'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari (1917-yil xotiralari) . G'afur G'ulom nomidagi NMB, – Toshkent 1992; Qodirov B., Matyoqubov X. O'zbekiston tarixidan mavzular bo'yicha ilmiy izohli lug'at. Falsafa va huquq instituti nashriyoti, – Toshkent 2008. – 216 b; Turdiyev Sh. "Yosh Turkiston" jurnali. – <https://tarjumon.uz/yosh-turkiston-jurnali>